

O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIKKA ERISHGANDAN KEYINGI TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR

Umarova Feruza Abdurasul qizi

Innovatsion texnologiyalar universiteti tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarning mazmuni, bosqichlari va ularning ta'lim tizimi rivojiga ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, ta'lim sohasining huquqiy asoslari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risidagi Qonun hamda so'nggi yillarda amalga oshirilgan modernizatsiya jarayonlari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarni joriy etish, pedagog kadrlar salohiyatini rivojlantirish va raqamli ta'limni kengaytirish borasidagi islohotlarning ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mustaqillik, ta'lim islohotlari, ta'lim tizimi, ta'lim siyosati, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risidagi Qonun, pedagogik islohotlar, oliy ta'lim, raqamli ta'lim, ta'lim sifati.

REFORMS IN THE EDUCATION SECTOR OF UZBEKISTAN AFTER GAINING INDEPENDENCE

Umarova Feruza Abdurasul qizi

*Second-Year Student, History Program
Innovation Technologies University*

Abstract: This article analyzes the content, stages, and impact of the educational reforms implemented in the Republic of Uzbekistan after gaining independence on the development of the national education system. In particular, it examines the legal foundations of the education sector, the National Program for Personnel Training, the Law on Education, and the modernization processes carried out in recent years based on scientific sources. The study also highlights the significance of reforms aimed at improving the quality of education, introducing international standards, enhancing the professional capacity of teachers, and expanding digital education.

Keywords: independence, educational reforms, education system, education policy, National Program for Personnel Training, Law on Education, pedagogical reforms, higher education, digital education, quality of education.

Kirish: O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng (1991-yil) mamlakatning barcha sohalarida, xususan ta'lim va madaniyat rivojida keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi. Mustaqillikning dastlabki yillarida yangi davlat qurilishi,

milliy g'oyalarni tiklash va jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv zarurati ta'lim tarbiya va madaniyat sohalarini tubdan qayta shakllantirishni talab qildi. O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy qadriyatlarini qayta tiklashi, tarixiy merosni saqlashi va shu bilan birga zamonaviy dunyoning rivojlanish tendentsiyalariga moslashishi uchun keng ko'lamli dasturlarni ishlab chiqdi. Ta'lim sohasidagi islohotlar, birinchi navbatda, maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha bo'lgan tizimni yangilashga qaratildi. 1997 yilda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi bilan mamlakatda ta'limning yangi me'yorlari belgilandi. Darsliklar va o'quv dasturlarini milliy mazmun bilan boyitish, pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash, xorijiy tillarni o'rganishga alohida e'tibor berish kabi yangi yondashuvlar joriy etildi. 2010-yillardan boshlab raqamli ta'lim texnologiyalari, masofaviy o'qitish tizimlari va xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS)ga tayyorgarlik kuchaytirildi. Madaniyat sohasida esa mustaqillikdan keyin milliy an'analarni qayta tiklash, xalq hunarmandchiligi, musiqasi, raqslari va adabiyotini targ'ib qilish katta ahamiyat kasb etdi. O'zbek madaniyati jahon miqyosida tanilishi uchun ko'plab xalqaro festival va ko'rgazmalar o'tkazildi. Xorijiy mamlakatlar bilan madaniy almashinuv kuchaydi, UNESCOning nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga O'zbekistonning bir qator an'analari kiritildi. Bu maqolada O'zbekiston mustaqillik yillarida ta'lim va madaniyat sohasida amalga oshirilgan islohotlar, ularning ahamiyati, natijalari va kelajakdagi istiqbollari tahlil qilinadi. Ta'lim tizimining zamonaviy shakllari, madaniy merosni saqlash va targ'ib qilishdagi yutuqlar, shuningdek, hali hal etilishi kerak bo'lgan muammolar yoritiladi. Maqola orqali o'quvchilar O'zbekistonning so'nggi 30 yildagi madaniy ma'naviy va intellektual rivojlanish yo'lini tushunishlari mumkin bo'ladi. Shu bilan birga fikr-mulohazalarimiz davomida mustaqillik davrida ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlari, madaniyat sohasida milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish, xorijiy tajriba va innovatsiyalardan foydalanish, jamiyatning madaniy-ma'naviy hayotidagi o'zgarishlar hamda kelajakdagi islohotlar uchun takliflar borasida so'z yuritiladi. Yana bir narsani inobatga olish zarur, ya'ni O'zbekiston mustaqillik yillarida ta'lim va madaniyat sohasida muhim yutuqlarga erishdi, ammo bu yo'lda yana ko'p ishlar qilinishi kerak.

Asosiy qism

Bugungi kunda ta'lim, madaniyat sohalarida juda ham ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga bu islohot va o'zgarishlarning poydevori mustaqillik yillariga borib taqaladi. Aynan o'sha yillarda milliy g'oyamiz, milliy ta'lim tizimimiz va milliy madaniyatimizni yaratish va qayta tiklash yo'lidan borildi. Ota-bobolarimizdan qolgan milliy qadriyatlar, urfodatlar va ma'naviyat bizning ma'naviy merosimizni, ularning madaniyati esa madaniy merosimizni tashkil etadi. Yosh avlod ma'naviyat va madaniyatni har gal yangidan yaratmaydi, balki ajdodlari tomonidan yaratilgan ma'naviy va madaniy boyliklarni qabul qilib olib, ularni davom ettiradi. Ana shunday merosning qadri abadiy tushmaydigan qismiga

milliy qadriyatlar va urf-odatlar deb ataladi. Masalan madaniyatimizni asrashda bir qancha harakatlar va o'zgarishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga ta'lim tizimimizda dastlabki islohotlar qilindi. Yana bir narsaga e'tibor qaratish lozim. Milliy mafkurasiz madaniyat ravnaq topishi mumkinmi, degan savol tug'ilishi tabiiy, albatta. Balki mumkindir, biroq bunday madaniyat millatni ezgu maqsadlar sari yetaklay olmaydi. Ota-bobolarimizdan qolgan milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ma'naviyat bizning ma'naviy merosimizni, ularning madaniyati esa madaniy merosimizni tashkil etadi.[1]

Bugungi kunda ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi innovatsion fikrlaydigan, zamonaviy kasbiy kompetensiyalarga ega va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Shu sababli ta'lim tizimini raqamlashtirish, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish, xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish va pedagoglarning malakasini uzluksiz oshirish bo'yicha ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Shuni ham aytish kerakki, bugungi kunda yosh o'qituvchilarimizdan nazariy bilim bilan bir qatorda ularni amaliyotda qo'llash ham talab etilmoqda. Shuni inobatga olgan holda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan oliy pedagogik ta'lim jarayonida 4+2 tizimi amal qilmoqda. Bunda bo'lajak o'qituvchilar haftaning to'rt kunida oliy pedagogik ta'lim muassasasida kasbiy-nazariy bilimlarni egallashadi va qolgan ikki kunida ta'lim muassasalarida o'zlashtirgan bilimlarni amaliy-metodik jihatdan mustahkamlaydi. Buning natijasida bo'lajak o'qituvchilar kasb va faoliyat asoslarini bevosita amaliyot bilan bog'lab o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Milliy konstitutsiyamizning yangi tahririda har kim o'zining shaxsiy kamoloti uchun ta'lim olish huquqi belgilab qo'yilgan.[2] Bunda ta'lim oluvchilar maktabgacha, maktab, o'rta maxsus, ixtisoslashtirilgan, professional va oliy ta'lim turlari bo'yicha o'zlarining ta'lim olish huquqlaridan foydalanadi. Buning natijasida ta'lim oluvchilar butun hayot davomida bilim, ko'nikma, malaka va tarbiya asoslarini egallash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu intellektual boylikning eng muhim asosidir. Mustaqillikning ilk yillaridanoq pedagogik sohada muhim ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ayniqsa o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshiriga qaratilgan bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga o'zgarishlarning bunday rejali va aniq maqsadli bo'lishi hamda hamjihatlik bilan amalga oshirilishi ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. A.S. Makarenkoning: "O'nta yuqori malakali, o'z holicha ishlaydigan o'qituvchidan malakasi past, bir yoqadan bosh chiqaradigan beshta o'qituvchi afzal" degan fikrlarini unutmaslik kerak. Aslida ham bu fikrlar haqiqatga juda mos chunki o'qituvchining salohiyati, uning dars o'tish qobiliyati muhim omillardan hisoblanadi. Yana shuni ham unutmaslik kerak, xususan maktabda ijobiy emotsional sharoit yaratish axloqiy tarbiya jarayoniga foydali ta'sir etadi.[3]

Shu o'rinda o'quvchilarni milliy ma'naviy meroslar asosida axloqiy tarbiyalashda quyidagi usullarni tavsiya etish mumkin. Masalan, turli bayram tadbirlari "Mustaqillik kuni", "Navro'z bayrami", adabiy kechalar «Sharq mutafakkirlari dunyo tamadunining asoschilari» mavzularidagi tadbirlarni tashkil qilish, tarbiyaviy soatlar, "Tarbiya" darslari saviyasini oshirishda interfaol metodlardan samarali foydalanish va boshqa usullar kirishi mumkin. Albatta, bu usullar o'quvchilar ongi va saviyasida o'zgarish qilishi tabiiy. Shu jihatdan ham bunday metodlarni qo'llash va ishlab chiqish mustaqillik yillarida ayniqsa juda muhim bo'ldi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda jamiyatni rivojlantirish va uni ijtimoiy taraqqiy ettirishning o'tgan davriga nazar tashlar ekanmiz, bu davr mobaynida erishilgan har bir natija va yutuq haqli ravishda «buguni va kelajagini o'z qo'li bilan bunyod etayotgan millionlab vatandoshlarimizning irodasi, aqlzakovati va fidokorona mehnati» bilan bog'lash mumkin. Jumladan, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik, hududiy daxlsizlik va milliy xavfsizlik, tarixiy, milliy va axloqiy qadriyatlar hamda an'analarning tiklanishi, iqtisodiy taraqqiyot, shaharsozlik sohasidagi olamshumul o'zgarishlar, siyosiy hayotning erkinlashuvi, mamlakatimizning jahon hamjamiyati bilan integratsiyasidagi amaliy qadamlar islohotlardagi izchillik samarasi deyish mumkin. Ayniqsa birinchi prezidentimizning 2003-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari bo'yicha Vazirligi Mahkamasidagi ma'ruzasi ham bunga yaqqol misoldir. Mustaqillik yillarida ta'lim tizimida bir muhim omil ilgari surildi. Ya'ni milliy ma'naviyat g'oyasidir. Milliy manaviyat har bir inson, har bir shaxs rivojlanishida hal qiluvchi jarayondir. Shuning uchun ham milliy ma'naviy meros va qadriyatlar mustaqil taraqqiyot va yuksalishning muhim omili hisoblanadi. Shuning uchun ham, milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni yuksaltirishga alohida e'tibor berib kelingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mening nazarimda, jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir. Biz Yangi O'zbekistonni barpoetishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz." [4] Bugungi kunda yoshlarimizning sifatli ta'lim va tarbiya olishi uchun bir qancha pedagogik usullar qo'llanilmoqda. Bu ta'lim jarayoni faqatgina o'quvchilar emas balki o'qituvchilardan ham iboratdir. Shu sababdan pedagog kadrlarni tayyorlash, ularni kasbga o'qitishga katta ahamiyat berilmoqda. Kasbga yo'naltirish uchun bo'lajak pedagoglardan ayniqsa talabalardan bir qancha xususiyatlar talab qilinadi. Xususan ularning eng umumiy turlari me'yoriy huquqiy, axloqiy, kommunikativ, axborotli, ijtimoiy-psixologik, o'z-o'zini tashkil etish va o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim. Xususiyatlarning mazkur talablari barcha mutaxassislar uchun tayanch sanaladi, chunki u eng avvalo, nomzodning shaxsiy rivojlanishini tavsiflaydi va uningsiz mutaxassis tayyorlash jarayonini loyihalashtirish mumkin emas. Mustaqillik yillaridan ayni shu

sohada ko'plab islohotlar qilindi. Xususan 1992-yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi qonun» dagi qonunda nazarda tutilgan loyihalar ham bunga yaqqol misoldir. Bugungi kunda yana bir muhim pedagogik atamlar bor va ularga to'xtalib o'tishimiz maqsadga muvofiqdir.[5] Xususan "Raqqamli didaktika" atamasi. "Raqqamli didaktika" bu pedagogika sohasi, ilmiy yo'nalish bo'lib, uning predmeti o'quv jarayonini raqqamli o'zgartirish, raqqamli iqtisodiyotga va tarmoq jamiyatiga o'tish sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishdir. Raqqamli didaktikaning obyeksi raqqamli ta'lim muhitida talaba faoliyatini tashkil etishdir. "Raqqamli madaniyat" esa qadriyatlar, munosabatlar, xulq-atvor normalari va qoidalari tizimi hamda axborot bilan maqsadli ishlash, kompyuter axborot texnologiyalari bilan ishlash va uzatish uchun zamonaviy texnik vositalar va usullardan foydalanish qobiliyati, zamonaviy insonning axborot madaniyatining namoyonidir.[6]

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu jarayonni uchta asosiy bosqichda: milliy qadriyatlarni tiklash va huquqiy asosni yaratish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini joriy etish hamda ta'limni xalqaro standartlarga moslashtirish bosqichlarida ko'rish mumkin.

1. Huquqiy Asosning Yaratilishi va Dastlabki Islohotlar

Sovet davri mafkurasidan voz kechib, ta'limni milliy manfaatlar va umuminsoniy qadriyatlar asosida qayta qurish dolzarb vazifaga aylandi. 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni buning huquqiy poydevori bo'ldi. Ushbu qonun ta'limning dunyoviy, insonparvarlik va demokratik tamoyillarini belgilab berdi.

2. Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi O'zbekiston ta'lim tizimidagi eng tub burilishlardan biri 1997-yilda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hisoblanadi. Dasturning asosiy maqsadi ta'lim tizimini bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan, yuqori malakali, mustaqil fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirishdan iborat edi. Natijada: **Uzluksiz ta'lim tizimi** joriy etildi (maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim va h.k.). Yangi turdagi ta'lim muassasalari – akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tashkil etildi.

3. Zamonaviy Taraqqiyot va Xalqaro Standartlar

Keyingi yillarda, xususan, so'nggi o'n yillikda ta'lim sohasida keng ko'lamli yangilanishlar amalga oshirildi. Bu bosqich sifat va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan:

Maktabgacha ta'lim: Bu bo'g'in alohida e'tibor markaziga chiqib, bolalarni bog'cha bilan qamrab olish darajasi bir necha barobar oshirildi. **Maktab ta'limi:** 11 yillik majburiy umumiy o'rta ta'lim tizimi qayta tiklandi. Ta'lim sifatini baholashning xalqaro dasturlarida (masalan: PISA) O'zbekiston o'quvchilarining ishtiroki ta'minlandi.

Oliy ta'lim: Oliy ta'lim muassasalari soni keskin ko'paydi va qamrov darajasi oshdi. Xalqaro nufuzli universitetlarning filiallari ochilib, oliygohlarga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'tgan yillar davomida qabul qilingan qonunlar, davlat dasturlari va konsepsiyalar ta'limning huquqiy, tashkiliy hamda metodik asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi. Ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimining shakllanishi, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim mazmunini yangilash va xalqaro tajribalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar ta'lim tizimining yangi bosqichga ko'tarilishida muhim omil bo'ldi. Shu bilan birga, ta'lim tizimini raqamlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini kengaytirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda yoshlarning sifatli ta'lim olishi, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish va mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.[9] Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ta'lim islohotlari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda izchil takomillashib bormoqda. Kelgusida ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida yanada oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish O'zbekiston ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan muhim omillardan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. Тошкент: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. -Б.440.
2. Abdirimova I. Loyihash faoliyatining tashkil etish bosqichlari. Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti nomli ilmiy -amaliy anjuman. Toshkent,2023. 50b.
3. Berdiyev M. Metodik ishlanmalar va ularning ta'lim tizimidagi o'rni. Ta'lim tizimidagi islohotlar: Olimlar va yoshlar nigohida. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. Toshkent-2023. 554-bet.
4. 3.Ergashev.Sh. Kasbga tayyorlashda samaradorlik darajalarini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari. O'zbekistonda professional ta'lim. Ilmiy-amaliy jurnal,2022. 2-son. -5b.

5. Jalilov K. Yangi O'zbekistonda ma'rifatli shaxs tarbiyasi: muammo va yechimlar. – Toshkent, O'zbekiston 2023.135-b
6. Maxmudov A. Raqamli pedagogikaning metodologik asoslari. Raqamli ta'limning zamonaviy tendensiyalari va ularni ta'lim tarbiya jarayoniga tatbiq qilish yo'llari. Respublikailmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil. 41-b
7. Munavvarov A. Pedagogika - T.:O'qituvchi, 1996.
8. R.Hasanov, Sh.O'ljayeva, O. Musayev. O'zbekistonning eng yangi tarixi. Toshkent,2022.-91 b.
9. 8.Sobirova.M, Xoliqov E. Etnomadaniyat. -Toshkent; Innovatsiya-ziyo, 2019.44bet.